



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil «21» - fevral

128-14-0-Q/23

Toshkent shahar hokimligi

Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovlari va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini joriy etish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-son qaroriga (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2010-yil, 17-son, 131-modda) asosan hamda Toshkent shahar hokimligining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari majmuasining 2023-yil 10-yanvardagi 02-39-sonli murojaatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

Bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

“Iste’molda bo‘lgan transport vositalari va ehtiyot qismlar Sergeli bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar

uchun undirib olinadigan to'lovlar, ijara haqi miqdorlari va "O'rikzor savdo kompleksi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun undirib olinadigan to'lovlar hamda ijara haqi miqdorlari 2 va 3-ilovalarga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarini ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarning miqdorlari 4-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovlarning miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslari hududidagi umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar uchun undiriladigan to'lov miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi (Yu.Nasimdjano), Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasi (Sh.Xadjizadayev), "Munitsipal aktivlarni boshqarish markazi" DUK (A.Razzoqov) bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati bilan birgalikda bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig'imlar, to'lovlar, ijara haqi to'lovlari va ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini joriy etish bo'yicha belgilangan tartibda zarur tadbirlar o'tkazilishini ta'minlasin.

3. Bozorlar va savdo komplekslarining rahbarlari belgilangan bir martalik yig'im, ijara to'lovi miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar ro'yxati va qiymatini bozorlar va savdo komplekslariga kiriladigan barcha joylarga osib qo'yilishini ta'minlasin.

4. Toshkent shahar hokimining 2021-yil 19-fevraldagi "Toshkent shahridagi bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatining yangi miqdorlarini joriy etish to'g'risida"gi 203-sonli qarori (3-bandidan tashqari) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Toshkent shahar hokimining o'rinbosari (A.Xen), Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (M.Azimova):

mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va www.toshkent.uz veb-saytiga joylashtirilishi ta'minlansin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari X.Shakirov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent shahar hokimi
vazifasini bajaruvchi**



B.Raxmonov

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan
bir martalik yig'implarning miqdorlari**

T/r	Mahsulot turi	O'lchov birligi	To'lov miqdori (so'm hisobida)
1.	Mahsulotlarni savdo o'rinlarida sotish:		
1.1.	Mevalar: ho'l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo'ri, gilos, ko'k va qizil sulton, o'rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h. k.	1 o'rin/ kunga	12 000
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va shunga o'xshashlar) hamda chet eldan keltirilgan (Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari) boshqa ho'l mevalar.	1 o'rin/ kunga	25 000
	Quruq mevalar, yong'oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong'oq, yeryong'oq, bodom, pistalar, sho'rdanak va h. k.	1 o'rin/ kunga	26 000
1.2.	Sabzavotlar: kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg'om, bulg'or qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring va h. k. hamda pishirilgan jo'xori	1 o'rin/ kunga	8 000
	Issiqxonalarda yetishtirilgan pomidor va bodring	1 o'rin/ kunga	15 000
1.3.	Poliz mahsulotlari: handalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv. metrgacha)	1 o'rin/ kunga	22 000
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug'doy, so'li, arpa va h.k.	1 o'rin/ kunga	15 000
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, no'xat va h. k.	1 o'rin/ kunga	15 000
1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog'i, suzma va h. k.	1 o'rin/ kunga	12 000
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h. k.	1 o'rin/ kunga	15 000

1.8.	Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir va h. k) hamda asal	1 o‘rin/ kunga	18 000
1.9.	Ko‘katlar (shu jumladan issiqxonada yetishtirilganlar)	1 o‘rin/ kunga	8 000
1.10.	Tuxum	1 o‘rin/ kunga	15 000
1.11.	Gullar va ko‘chatlar (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	36 000
1.12.	Non mahsulotlari (obi non, shirmoy non, lochira, katta-kichik o‘lchamdagi hamda har xil turdagi patirlar. Zavod yoki sexlarda ishlab chiqarilgan qolipli non va non-bulochka mahsulotlaridan tashqari)	1 o‘rin/ kunga	8 000
1.13.	Ruxsat berilgan sharoitlarda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va qandolatchilik mahsulotlari (tegishli ruxsatnomalari mavjud bo‘lganda)	1 o‘rin/ kunga	21 000
1.14.	Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari	1 o‘rin/ kunga	25 000
	Salqin ichimliklar (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	50 000
1.15.	Milliy taomlar (tayyorlov joylari talabga javob berishi haqida, vakolatli organlar tomonidan berilgan tegishli ruxsatnomalari yoki xulosalar mavjud bo‘lganda)	1 o‘rin/ kunga	23 000
1.16.	Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilar	1 o‘rin/ kunga	12 000
1.17.	Supurgi	1 o‘rin/ kunga	8 000
1.18.	Tirik baliq	1 o‘rin/ kunga	20 000
1.19.	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	20 000
2.	Go‘sht mahsulotlari: mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h. k.	1 o‘rin/ kunga	27 000
	Tayyor pishgan go‘shtli mahsulotlar: (qazi, til, yangilik, ruletlar, kolbasalar va h.k.)	1 o‘rin/ kunga	35 000
3.	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini avtomashinalarda sotish:		

	yengil avtomashinalarda	1 mashina	35 000
	yuk avtomashinalarida	1 mashina	47 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlarda	1 mashina	57 000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqaridagi maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	40 000
4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorm, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va h. k.	1 mashina	23 000
5.	Qurilish materiallarini sotish:		
5.1.	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish:		
	6 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	35 000
	6 dan — 15 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	50 000
	15 dan — 30 kv. metrgacha	1 o‘rin/kunga	66 000
5.2.	Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lustra, svetilniklar va h. k.) sotish (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	25 000
6.	Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish:		
6.1	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o‘rin/kunga	14 000
6.2	Uy-ro‘zg‘or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o‘rin/kunga	9 000
6.3	Noyob hamda qadr-qiyamatga ega (asosan ishlab chiqarishdan olib tashlangan) chinni va billur (xrustal) buyumlarni sotish	1 o‘rin/kunga	21 000
7.	Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun		
7.1.	Ot, toy, tuya	1 bosh	31 000
	bo‘taloq, eshak	1 bosh	25 000
7.2.	Yirik shoxli qoramol:		
	yirik shoxli qoramol (shu jumladan sigir buzog‘i bilan)	1 bosh	31 000
	buzoq	1 bosh	21 000
7.3.	Mayda shoxli qoramol:		

	qo'y, echki (qo'y qo'zisi bilan, echki ulog'i bilan va h. k.)	1 bosh	21 000
	qo'zi, uloq	1 bosh	12 000
7.4.	Cho'chqalar, cho'chqa bolalari	1 bosh	21 000
8.	Uy parrandalari: kurka, tovuq, o'rdak, g'oz	1 bosh	4 000
	tovuq, kurka, o'rdak, g'oz jo'jalari	10 bosh	4 000
9.	Itlar va mushuklar	1 o'rin/ kunga	22 000
10.	Manzarali qushlar va baliqlar	1 o'rin/ kunga	30 000
11.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda	1 o'rin/ kunga	22 000
12.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksessuarlar va buyumlar, bir joyda	1 o'rin/ kunga	22 000
13.	Poyabzal ta'mirlash xizmati	1 o'rin/ kunga	11 000

Izoh: 1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xalq iste'moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o'rni) o'lchami 1 — 1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o'lchamdan ortiq o'rin uchun qo'shimcha ravishda har bir savdo o'rni uchun belgilangan to'lov miqdorida joy haqi undiriladi.

2. Mahsulotlar aralash holda sotilganda, to'lov sotiladigan mahsulot turlari bo'yicha belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi.

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**“Iste’molda bo‘lgan transport vositalari va ehtiyot qismlar Sergeli
bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar
uchun undirib olinadigan to‘lovlar hamda ijara haqi miqdorlari**

t/r	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari	O‘lchov birligi	To‘lov miqdori (so‘m hisobida)
1.	Avtotransport vositalarini sotish uchun sotuv hududlaridan haftaning juma kuni 17 ⁰⁰ dan yakshanba kuni 17 ⁰⁰ gacha foydalanganligi uchun har bir avtomobildan undiriladigan to‘lov (sutka):		
1.1.	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar uchun usti yopiq sotish joylaridan	1 dona	46 000
1.2.	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar uchun usti ochiq sotish joylaridan	1 dona	41 000
1.3.	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari sotish joylaridan	1 dona	52 000
1.4.	motosikl, motoroller va mopedlar sotish joylaridan	1 dona	8 000
2.	Avtotransport vositalarini sotish uchun sotuv hududlaridan haftaning yakshanba kuni 17 ⁰⁰ dan, juma kuni 17 ⁰⁰ gacha foydalanganligi uchun bir avtomobildan undiriladigan to‘lov (sutka):		
2.1.	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar uchun usti yopiq sotish joylaridan	1 dona	8 000
2.2.	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar uchun usti ochiq sotish joylaridan	1 dona	7 000
2.3.	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari sotish joylaridan	1 dona	17 000
2.4.	motosikl, motoroller va mopedlar sotish joylaridan	1 dona	4 000
3.	Bozor hududida joylashgan maxsus ajratilgan joylarda avtotransport vositalarini to‘xtab turishlari uchun (sotuv hududlaridan tashqari barcha hududlar) haftaning barcha kunlarida kirishga:		
3.1.	yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar uchun	1 dona	7 000

3.2.	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko'taruvchi transport vositalari uchun	1 dona	16 000
4.	Turg'un savdo shoxobchalari oldiga avtotransport vositalarining ehtiyot qismlari hamda avtoshinalarni chiqarib do'kon tashqarisidagi bozor hududidan foydalanganlik (1,2x2 m. hajmdagi joy) uchun	1 o'rin/ kunga	15 000
4.1.	Iste'molda bo'lgan ehtiyot qismlar va avtoshinalar bilan hududning belgilangan joylarda sotish (1,2x5 m. hajmdagi joy) uchun	1 o'rin/ kunga	15 000
5.	Bozor balansidagi bino, inshoot va qurilmalardan foydalanganligi uchun ijara to'lovi (1 oyga):		
5.1.	Savdo do'konlari uchun	1 kv.metr uchun	58 000
5.2.	Savdo do'konlari qatorlarining o'rta qismidagi (qatorlar kesishuvidagi) burchagida (toresda) joylashgan turg'un savdo do'konlari uchun	1 kv.metr uchun	85 000
5.3.	Ustaxona (tokar stanoklari, avtomobil g'ildiraklarini ta'mirlash) sifatida foydalanilayotgan xonalar uchun	1 kv.metr uchun	35 000
5.4.	Bank-kassa shoxobchalari uchun	1 kv.metr uchun	63 000
5.5.	Davlat notariuslari uchun	1 kv.metr uchun	35 000
5.6.	Xususiy notariuslar uchun	1 kv.metr uchun	65 000
5.7.	Ofislar uchun	1 kv.metr uchun	63 000
5.8.	Maishiy xizmat ko'rsatish xonalari uchun	1 kv.metr uchun	23 000
5.9.	Dorixona va tibbiy xizmat ko'rsatish xonalari uchun	1 kv.metr uchun	30 000
5.10.	Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari uchun	1 kv.metr uchun	46 000
5.11.	Umumiy ovqatlanish shoxobchalari uchun	1 kv.metr uchun	57 000
5.12.	"Paynet" xonalari uchun	1 kv.metr uchun	126 000
5.13.	Ombor sifatida ijaraga beriladigan konteynerlar uchun	1 kv.metr uchun	35 000
5.14.	Muzqaymoqlar savdosi uchun (2 x 2 m. hajmdagi joy)	1 o'rin/ kunga	23 000

5.15.	Donali taomlar (xot-dog, pirojki, somsa va h.k.) tayyorlab sotish hamda salqin ichimliklar savdosi uchun (2 x 2 m. hajmdagi joy)	1 o‘rin/ kunga	46 000
6.	Hojatxona xizmatidan foydalanish uchun	1 marta	2 000
7.	Aravachalar uchun	1 kunga	29 000
8.	E‘lonlar o‘rnatish (osish) uskunalaridan foydalanganlik uchun (1 m2)	1 oyga	49 000

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

**“O‘rikzor savdo kompleksi” mas’uliyati cheklangan jamiyati
tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun undirib olinadigan
to‘lovlar hamda ijara haqi miqdorlari**

r/p	Ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari	To‘lov miqdori (so‘m hisobida)
1.	MChJ hududlarida joylashgan bino, inshoot va qurilmalardan foydalanganligi uchun ijara to‘lovi (1 kv. metr uchun bir oylik):	
1.1.	Oziq-ovqat mahsulotlari do‘konlari uchun	121 000
1.2.	Nooziq-ovqat mahsulotlari do‘konlari (1, 2 va 3-bloklar) uchun	101 000
1.3.	Nooziq-ovqat mahsulotlari do‘konlari (4, 5 va 6-bloklar hamda mazkur ilovaning 1.2. va 1.3. bandlarida ko‘rsatilgan bloklardan tashqari hududlar) uchun	97 000
1.4.	“Gilamlar olami” va “Poliz mahsulotlari” shoxobchalarida joylashgan savdo do‘konlari uchun	67 000
1.5.	“Qurilish mollari” va “Iste‘mol mahsulotlari” shoxobchalarida joylashgan savdo do‘konlari uchun	63 000
2.	Omborxonalardan foydalanganlik uchun (1 kv.m. uchun bir oylik ijara to‘lov)	
	• asosiy kompleksda	97 000
	• asosiy kompleksdagi yer to‘lada	94 000
	• shoxobchalarda	47 000
3.	Umumiy ovqatlanish shoxobchalari uchun (1 kv.m. uchun bir oylik ijara to‘lov)	80 000
	Donali taomlar (xot-dog, gamburger, pirojki, somsa va h.k.lar) tayyorlab sotish hamda muzqaymoq va salqin ichimliklar savdosi uchun 15 kv.m.gacha (1 kv.m.ga oylik ijara to‘lov)	238 000
4.	Bank-kassa shoxobchalari uchun (1 kv.m. uchun bir oylik ijara to‘lov)	88 000
5.	Maishiy va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini ijaraga berishdan olinadigan ijara haqi (1 kv.m. uchun bir oylik to‘lov):	
5.1.	Sartaroshxona, paynet va aloqa xizmati uchun	88 000
5.2.	Poliklinika uchun	32 000
6.	Boshqa turdagi mavsumiy joylar uchun (“asal yarmarkasi”, maktab bozori va x.k.) (1 kv.m.ga oylik ijara to‘lov)	55 000
7.	E‘lonlar o‘rnatish (osish) uskunalaridan foydalanganlik uchun ijara haqi (1 kv.m. uchun bir oylik to‘lov)	48 000
8.	Turg‘un savdo shoxobchalari atrofidan ko‘rgazma stendlar sifatida foydalanganlik uchun (1 kv.m. uchun bir oylik to‘lov)	231 000

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlarining miqdorlari

T/r	Ko'rsatiladigan xizmatlar turi	O'lchov birligi	To'lov miqdori (so'm hisobida)
1.	Inventarlarni ijaraga berish:		
1.1.	Tosh-tarozilar uchun	1 kunga	6 000
1.2.	Katta yuk tortish tarozilari uchun:		
-	150 kg. gacha	1 kunga	20 000
-	150 kg. dan 1500 kg.gacha	1 kunga	29 000
1.3.	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o'rindiq, patnis, savat, stol-stul, vitrinali sovtgichlar yon qismida o'rnatilgan moslama va h.k.lar) (butun to'plam uchun, to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi):		
-	go'sht va go'sht mahsulotlari hamda milliy taomlar majmualarida	1 kunga	12 000
-	boshqa rastalarda	1 kunga	6 000
1.4.	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to'plam uchun) (to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	2 000
1.5.	Mahsulotlar uchun brezent berish uchun	1 kunga	5 000
1.6.	Aravachalar uchun	1 kunga	29 000
1.7.	E'lonlar o'rnatish (osish) uskunalaridan foydalanganlik uchun (1 m2)	1 kunga	1 600
2.	Turg'un savdo shoxobchalarining atrofidan ko'rgazma stendlar sifatida foydalanganlik uchun (faqat nooziq-ovqat mahsulotlari uchun) (stend yuzasining har bir kv.m. uchun)	1 kunga	1 800
3.	Turg'un savdo shoxobchalarining atrofidan mahsulot ko'rgazmasi uchun stollar va shunga o'xshash moslamalardan foydalanganligi uchun (faqat nooziq-ovqat mahsulotlari uchun) (moslama yuzasining har bir kv.m. uchun)	1 kunga	9 000
4.	Ko'rsatiladigan xizmat turlari:		
4.1.	Qishloq xo'jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:		
-	sovtgichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	11 500

-	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h. k. uchun)	1 kunga	7 000
-	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o'ri hisobidan)	1 kunga	4 000
4.2.	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50 x 50 x 100 sm. o'lchamdagi joy uchun)	1 kunga	7 000
4.3.	Mahsulotlarni tarozida tortish uchun:		
-	katta yuk tarozida	1 marta tortish	5 000
-	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	5 000
4.4.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash uchun:		
-	yengil avtomashinalar uchun	20 minutgacha	3 000
		40 minutgacha	5 000
		1 soatgacha	6 000
		2 soatgacha	7 000
		3 soatgacha	8 000
		4 soatgacha	10 000
		4 soat va undan ortiq vaqt uchun	11 000
-	yuk avtomobillari uchun	20 minutgacha	5 000
		40 minutgacha	6 000
		1 soatgacha	7 000
		2 soatgacha	8 000
		3 soatgacha	9 000
		4 soatgacha	11 000
		4 soat va undan ortiq vaqt uchun	13 000
4.5.	Bozorlarning yer to'la qismida tashkil etilgan Avtotransport vositalarini saqlash xizmati uchun	1 oy uchun	240 000
4.6.	Hojatxona xizmatidan foydalanish uchun	1 marta	2 000
4.7.	Radiouzel orqali e'lon berish uchun	3 marta takror	4 000
5.	Bozorlar va savdo komplekslari hududiga kiruvchi va to'xtab turuvchi avtotransport vositalaridan undiriladigan to'lovlar:		
5.1.	Transport vositalarining yuk ortish va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari hududiga kirishi va to'xtab turishi (qishloq xo'jalik mahsulotlarini tushirish uchun kirgan avtotransport vositalari bundan mustasno)		
-	yengil avtomobillar uchun	1 marta kirish	11 000
-	yuk avtomobillari uchun	1 marta kirish	29 000
5.2.	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ulgurji bozorlariga yuk ortish va to'xtab turish uchun kirish:		
-	yuk avtomobillariga	1 marta kirish	25 000

-	yengil avtomobillarga	1 marta kirish	12 000
---	-----------------------	----------------	--------

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
5-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovlari miqdorlari

(1 kv.m. uchun bir oylik ming so'm hisobida)

Bozorlar va savdo komplekslari nomi	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish uchun	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish uchun	Umumiy ovqatlanish tarmoqlari uchun	Maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun	Boshqa turdagilar uchun (ombor, ofis, dorixona, paynet va h. k.)
1. Aviasozlar dehqon bozori	58,0	72,0	65,0	33,0	32,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	60,0	57,0	23,0	24,0
2. Askiya dehqon bozori	58,0	72,0	68,0	23,0	29,0
3. Chilonzor dehqon bozori	55,0	68,0	65,0	23,0	32,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	60,0	57,0	23,0	24,0
4. Mirobod dehqon bozori	72,0	88,0	83,0	44,0	57,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan hamda asosiy bozordagi 100 ta do'kon	63,0	61,0	59,0	32,0	38,0
5. Navro'z dehqon bozori	57,0	65,0	69,0	30,0	47,0
6. Oloy dehqon bozori	58,0	97,0	68,0	51,0	40,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	57,0	57,0	29,0	29,0
"Anglesey food" Sh/K	55,0	55,0	55,0	55,0	55,0
7. Sirg'ali dehqon bozori	53,0	61,0	65,0	23,0	32,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	60,0	57,0	23,0	23,0
8. Toshkent qishloq xo'jalik mahsulotlari ulgurji bozori	66,0 52,0*	66,0	60,0	29,0	40,0**
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	52,0	58,0	58,0	23,0	26,0
9. Farhod dehqon bozori	58,0	72,0	68,0	34,0	33,0
10. Eski-jo'va dehqon bozori	69,0	73,0	68,0	48,0	51,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	60,0	57,0	25,0	26,0
11. Yunusobod dehqon bozori	76,0	78,0	66,0	47,0	48,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	60,0	57,0	23,0	24,0
12. Qora-qamish dehqon bozori	53,0	61,0	65,0	23,0	24,0

Bozorlar va savdo komplekslari nomi	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish uchun	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish uchun	Umumiy ovqatlanish tarmoqlari uchun	Maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari uchun	Boshqa turdagilar uchun (ombor, ofis, dorixona, paynet va h. k.)
13. Qo'yliq dehqon bozori	78,0	83,0	78,0	59,0	53,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	46,0	54,0	52,0	23,0	23,0
14. Chilonzor buyum savdo kompleksi	75,0	76,0	74,0	61,0	50,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	53,0	62,0	60,0	23,0	25,0
15. Chor-Su buyum savdo kompleksi	66,0	68,0	65,0	45,0	36,0
16. Parkent universal savdo kompleksi	66,0	66,0	65,0	32,0	32,0
Binolarning 2-qavatida va yerto'la qismida joylashgan	51,0	59,0	57,0	23,0	24,0
17. Yangiobod ixtisoslashgan bozori	55,0	60,0	64,0	26,0	53,0
18. Bek to'pi savdo kompleksi	51,0	60,0	58,0	23,0	24,0

Izoh: * "Toshkent qishloq xo'jalik mahsulotlari ulgurji bozori"da qishloq xo'jalik mahsulotlari (shu jumladan, tropik va sitrus mevalari) savdosi uchun.

** "Toshkent qishloq xo'jalik mahsulotlari ulgurji bozori"da mavjud dushxonalar ijarasi "Boshqa turdagilar" hisobidan undiriladi.

Toshkent shahar hokimining
2023 yil 21 fevraldagi
128-14-0-Q/23-son qaroriga
6-ilova

Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muxandislik-kommunikatsiya inshootlari)* miqdori

Bozorlar va savdo komplekslari nomi	O'lchov birligi (oylik to'lov)	To'lov miqdori (so'm hisobida)
1. "Aviasozlar dehqon bozori" 2. "Askiya dehqon bozori" 3. "Chilonzor buyum savdo kompleksi" 4. "Chor-su buyum savdo kompleksi" 5. "Parkent universal savdo kompleksi" 6. "Bekto'pi savdo kompleksi" 7. "O'rikzor savdo kompleksi"	1 kv.metr uchun	17000
8. "Iste'molda bo'lgan transport vositalari va ehtiyot qismlar Sergeli bozori"	1 kv.metr uchun	22000
Qolgan barcha bozorlar va savdo komplekslari	1 kv.metr uchun	8000

Izoh: * Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko'rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib haq to'lanadi. Bunda maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish xizmatlari uchun bino va inshootlar mulkdorlari tomonidan mazkur turdagi xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlarga qo'shimcha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

** "O'rikzor savdo kompleksi"da xususiy obyektlar joylashgan joy ustidagi bozorning tom qismining ijarasi ham kiritilgan.